

**X.DO' STMUHAMMADNING "SHABADA" HIKOYASIDA  
QAHRAMONLAR XARAKTERI TAHLILI**

***Salimova Rayxona Burxon qizi***

*Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish  
(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*e-mail: salimovarayxona00@gmail.com*

**Annotation:** Mazkur maqolada obrazlar xarakteri, ularning ichki kechinmalari va ayrim oilaviy masalalar tahlillar vositasi orqali yoritildi.

**Abstract:** In this article, the characters' traits, their inner emotions, and aspects of family issues are examined through various analytical approaches.

**Kalit so'zlar:** obrazlar xarakteri, oilaviy masalalar, obrazlar xattiharakati, pand-nasihat.

**Key words:** Character traits, family issues, characters' behavior, moral lessons

Badiiy asarda har bir obraz muallif tomonidan yaratilgan o'ziga xos xarakter va ichki dunyoga egadir. Qahramonlar xatti-harakati orqali muallif inson psixologiyasi, xarakteri hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritishga intiladi. Shu bois, obrazlar xaraterini chuqur tahlil qilish asarning badiiy qiymatini, estetik-g'oyaviy mazmunini yanada teran anglashga xizmat qiladi. Badiiy obrazning xarakteri uning so'zlari, xatti-harakati, ichki kechinmalari, kezi kelganda, tashqi tasviri orqali shakllanadi.

X.Do'stmuhammadning "Shabada" hikoyasidagi obrazlarning gap-so'zlari, xatti-harakatlari orqali muallifning badiiy niyati ro'yobga chiqqan. Hikoya bosh qahramoni-Komron ismli yigit. U xizmat safariga ketish oldidan oilasi bo'laturib Nozik ismli qizni sevib qoladi. Tizginsiz mayllarini jilovlay olmasdan, xizmat safariga borish fikridan ham qaytadi: "Nozikoy, sizni ko'rish uchun ham hech qayoqqa uchmayman!.."

Komron xotini va bolalarining shaharga kelishayotganini eshitib, tutaqib

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ketadi.Uning oilasidan hol-ahvol so'ramay qo'ygani esa onasining nutqidan oydinlashadi:"O'zing xotining bilan yolchitib gaplashmasang qayoqdan aytadi senga,qachon aytadi?!Ishing ko'payib ketgan bo'lsa,unda nima gunoh,bolalaringda nima gunoh?!"

Lekin Komron tuyg'ug'arini jilovlashga qurbi yetmasa-da,oilasini ham tashlab qo'ymoqchi emas.Kamolning o'g'li,jiyani,o'g'li Imronni qachon bu yerga olib kelishini so'raganda,quyidagicha javob qaytaradi:"Imronni ham,Go'zalni ham olib kelaman,jiyan.Kelishadi,ularni ham tashlab qo'yaymiz..."

Onasi Komronga ko'p bor nasihat qildi,shart qo'ydi:"Erkakdir,ayoldir oila taqdiriga hamisha,har kuni hushyor bo'lmos'hil kerak.Er-xotin o'rtasida sovuqchilik paydo bo'ldimi,beparvolik oqibati yaxshilik bilan tugamaydi.Xullas,so'zimni qulog'ingga olmasang,u dunyo-yu bu dunyo rozi emasman,shuni unutma,o'g'lim!.."

Hikoyadagi e'tiborga molik obrazlardan biri-Mirsayyid tog'a.Uning jiyani Komron uchun gapirgan so'zlari quruq pand-nasihatlardangina iborat emas.U oilasidan voz kechgan jiyaniga hayotiy misollar orqali boshiga qanday kunlar tushishi mumkinligidan uni ogohlantiradi:"Hayotda noshukrlikdan yomon narsa yo'q.Xotining-sening nasibang, sen esa-uning nasibasi,oyday-gulday yashab dunyo kezib yuribsan,shu nasibangdan yuz o'girmoqchimisan?"

U guldek bir oilaning buzilib ketishi yomon oqibatlarga olib kelishini eskidan qolgan bir gap bilan isbotlaydi:"Bir oilaning buzilishi arshni larzaga keltiradi...ko'kni ostin-ustun qiladi!"

Asar so'ngida ham Mirsayyid tog'a Komronning uyida sodir bo'lgan g'ayrioddiy,ko'ngilsiz hodisalarning sababi oilasining buzilgani uchun deb fikr yuritadi.Hali ham oilasini asrab qolishi uchun kech emasligini uqtiradi:"Guldek oilaning buzilishi arshni larzaga keltirishini aytgan edim.Tushunmadi,tushunishni ham istamadi.Aytib qo'yay,chiroyli uyidagi mashmashalarning bari o'sha men aytgan larzaning shabadasi,xolos...Uqdingmi,shabadasi..."

Kamol-Komronning ukasi.Hikoya davomida u ancha mushkul vaziyatlarda qoladi.Ayniqsa,Komron Nozikoy haqida onasiga aytishi kerakligini aytganda,oqibati og'ir bo'lishini his qiladi.U bir necha bor akasini to'g'ri yo'lga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

qaytarishga urinib ko'radi:"Nimalar deyapsiz,aka?Bu gaplarni aytish siz o'ylagandan ko'ra ancha og'ir.Oqibati esa undan battar,shularni o'ylab ko'rdingizmi?Komila yangamning ahvoli nima kechadi?Bolalarning-chi...?!"

Komila allaqachon ayollarga xos ziyraklik bilan turmush o'rtog'inining xayolida pishib yetilmagan bahona-yu vaj-kqsonlarning ildiz-u shox-shabbasigacha fahmlab,ilg'ab ulgurgan edi.Qaynonasi ham Komilaning ko'zlariga qarolmas,nevaralarini ko'rganda yana ham ruhan azoblanar edi.

Komron bilan Nozik yashaydigan uyda kun osha ko'z ko'rib,quloq eshitmagan ajabtovur hodisalar yuz beradi.Bu Mirsayyid tog'aning ta'biricha,guldek oilaning buzilishi arshni larzaga solayotganligidan dalolat edi.Bu voqealar ramziy ma'noda oilaning muqaddas ekanligiga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda,oila muqaddas.Uni asrab qolish esa go'yoki insoniy burchdir.Zeroki,oilalarning buzilishi arshni larzaga solib yuborishga qodir kuchdir

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Do'tmuhammad Xurshid.Shabada."O'zbekiston adabiyoti va san'ati"gazetasi,2012-yil,50-son.
- 2.Umurov Hotam.Adabiyotshunoslik nazariyasi.A.Qodiriy,Toshkent-2004.
- 3.Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.Noshir, Toshkent- 2019.
- 4.<https://kh-davron.uz>.
- 5.<https://tafakkur.net>.
- 7.Quronov Dilmurod.Adabiyot nazariyasi asoslari.Navoiy universiteti,Toshkent-2018.